



Qarshi Davlat universiteti

Tarix va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

Tarix kafedrası

II-Kurs talabasi

Raimova Nargizaning

O'zbekiston kelajagi buyuk davlat mavzusidagi

Referati

Bajardi: *Raimova Nargiza*

Tekshirdi: *Narzullayev O`tkir*

Qarshi-2014

REJA:

1. Vatan tuyg'usi nima
2. Biz ozod xalqmiz va buyuk tarix egasimiz
3. Bizning milliy davlatchilik va buyuk ma'naviyatlarimiz
4. Milliy qadiryatlarimiz
5. O'zbekiston vatanim manim.

Kirish

Vatan tuyg'usi bu Vatanni anglash har bir umr davom etadigan uzluksiz jaroyondir. Biz har gal o'lkamiz bahori, yozi, kuzi va qishiga ro'baro' kelganda, uning tog'-u toshlari, daryo-yu o'rmonlari, bepoyon dalalari, tarixiy obidalari, obod shahar-u qishloqlarini ko'rganda, ko'nglimizda yangi-yangi tuyg'ular paydo bo'ladi.

Shuning uchun inson o'z atrofidagi narsa-hodisalar bilan doim muloqotda bo'ladi. Ana shu muloqot uning tuyg'ularini boyitadi, tasavvurlarini kengaytiradi.

Inson o'z Vatani bilan ham bir umr muloqotda bo'lib yashaydi. Eng quvonchli yoki qayg'uli damlarida ota-onasini eslagani kabi Vatanni ham yodga oladi. Ona yurtining xursandchilik yoki tashvishli kunlari uchun o'zini burchli deb biladi.

Biz buni Vatan oldidagi farzandlik burchi deymiz. Ana shu burch tuyg'usi ota-bobolarimizni yurtimiz ozodligi uchun da'vat etgan. Bu tuyg'u Vatanni anglashda alohida o'rin tutadi. Xuddi sen ta'til kunlari maktabingdan yiroqlashib, uning qadrini seza boshlaganing kabi, Vatanning qadri ham undan olis ketganimizda yaqqol bilinadi. Chunki inson o'z yurtidan uzoqlashar ekan, uning sog'inchi, hasrat-armoni yuraklarini o'rtaydigan darajada kuchayadi.



Biz Vatanimizni ozod va mustaqil, go'zal va betakror, qadimiy deb ta'rif etamiz. Bu ta'riflarning har biri yurtimiz haqidagi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan haqiqatlarni aks ettiradi. Lekin bu haqiqatlarning

har birini o'zimiz mustaqil ravishda yurak-yurakdan his etishimiz, chin dildan anglashimiz kerak.

Shundagina biz ona diyorimizning qanchalik ozod, qanchalik mustaqil, qanchalik go'zal va batakror ekanini his etamiz. Bu his-tuyg'u bizni Vatanimizni butun vujudimiz bilan sevishga undaydi, bizga madad beradi. Prezident Islom Karimovni xalqimizni istiqlol yo'lidan dadil va mardona boshlab, uni ozod va erkin hayot sari boshlashga da'vat etgan, bugungi kunda yurtimizni dunyodagi ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqishga undayotgan kuch ham avvalo Vatan muhabbati, Vatanga sadoqat tuyg'usidir.

Dunyodagi har bir xalq Yaratganning beqiyos mo'jizasi hisoblanadi. Chunki ularning har biri o'zining tabiati, urf-odat va an'analari, tili va dini, milliy xarakteri hamda turmush tarzi bilan alohida ajralib turadi. Xalqlarning mana shunday ko'pligi va rang-barangligi ular o'rtasida do'stona aloqalarning rivojiga, o'zaro muloqot qilish, bir-biridan o'rganish, tajriba almashishga asos bo'ladi.

Bizning xalqimiz ham jahon sivilizatsiyasiga salmoqli hissa qo'shgan eng qadimiy xalqlardan biri hisoblanadi. Bu haqda atoqli shoirimiz G'afur G'ulom shunday deb yozgan:

**Qadim o'zbek xalqisan, asl odam avlodi,
Misr ehromlaridan tarixing qariroqdir.**

O'zbeklar turkiy xalqlar oilasiga mansub millat. Turon va Turkiston deb atalgan ulkan hududda yashagan va u yerdan turli el-elat va millatlarga

bo'linib, butun dunyoga tarqalib ketgan xalqlar qadimda turkiylar deb atalgan. Turkiy xalqlarga o'zbeklardan tashqari, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarboyjon, uyg'ur, tatar, boshqird, qorachoy, qolmiq, yoqut, turk, gagauz (ko'k o'g'uz) kabi millatlar kiradi.

Olimlarimizning aytishicha „**o'zbek**“ atamasi o'ziga ishonadigan, mustaqil fikrlaydigan va ish tutadigan, botir, mard, yovqur, chekinmas singari ma'nolarni anglatadi. Shunday xususiyatlarni o'ziga fazilat qilib olgan insonlarga nisbatan o'zbek degan so'z qo'llangan. Shundan ham bilish mumkinki, ota-bobolarimiz qadim-qadimdan ozod va erkin yashagan, hech kimga qaram bo'lmagan.

Sen Prezidentimiz Islom Karimovning „O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi“ degan so'zlarini eshitgansan. Bu so'zlar ham o'zbek degan atamaning ma'no-mazmunini, ya'ni ona xalqimizning mard va tanti, o'z haq-huquqini bировga berib qo'ymaydigan, g'ururi baland, zo'r ekanini tasdiqlab turibdi.

O'zbek xalqi dunyoning eng qadimiy o'troq xalqlardan biri hisoblanadi.

O'troq hayot uchun muayyan shart-sharoitlar lozim bo'ladi.

Avvalo, qo'nim topgan yerga muhabbat , bu makonning tabiatiga mos milliy xarakter, turmush tarzi, kasb-u hunar, qadriyat va an'analar shakllangan bo'lishi lozim.

Shuningdek , o'troq hayot tashqi dushmanga, har xil qiyinchiliklarga qarshi birlashish, ularni yengish uchun g'oyaviy va davlatchilik asoslarining bo'lishini ham taqozo etadi. Demak, xalqimiz qadim-qadimdan ana shunday asoslarning barchasiga ega bo'lgan.

Shu haqda **Prezidentimiz Islom Karimovning ko'plab asarlarida, xususan, „ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q “ nomli suhbatida ko'pgina ma'lumotlar** berilgan.

Xalqimizning nomini ulug'lagan, uning shan'-u sharafigini oshirgan



yana bir fazilat borki, bu uning hamisha yuksak ma'naviyatga, ilm va ma'rifatga intilib yashashidir. Shu tufayli xalqimiz dunyo madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan.

Bizning ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy va bebaho madaniy merosni butun dunyo tan oladi.

Bizning xalqimiz qadim-qadimdan dunyoga ko'plab allomalar, aziz-avliyolar, shoir va mutafakkirlarni yetkazib bergan. Ularning har biri nafaqat ulkan ilmiy, adabiy, diniy merosi, balki noyob fazilatlar bilan ham millatimiz nomini, insonlik sharafigini yuksaklarga ko'targan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zining taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, nafaqat buyuk va mislsiz voqealarga boy bo'lgan olis tariximizni, balki xalqimiz qariyb 130 yillik mustamlakachilik davrida boshidan kechirgan og'ir va murakkab davrni, undan chiqadigan saboq va xulosalarni ham nazarga olib ish tutiladi.

Albatta har bir xalq o'zining milliy tarixni boshqa xalqlar tarixdan kam deb bilmaydi. Lekin har bir xalq tarixining qadimiyligi va buyukligini belgilashda uning o'zi tomonidan berilgan baho emas, balki dunyoda umume'tirof etilgan bir qator omillar alohida o'rin tutadi. Bular- o'sha xalq yashayotgan zaminda odamzodning paydo bo'lishi bilan bog'liq eng ko'hna manzilgohlarning mavjudligi; ilk sivilizatsiya, ya'ni madaniy taraqqiyotning paydo bo'lishi bilan bog'liq yodgorliklarning borligi,

ushbu zaminning milliy davlatchilik va yuksak sivilizatsiya an'alariga boyligi; dunyo tarixida butun bir davrni tashkil etadigan, jahon taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan, nafaqat milliy, balki umumbashariy ahamiyatga ega

bo'lgan ulkan voqealar, buyuk shaxslar, noyob osori atiqalar hamda muqaddas ziyoratgohlarning ko'pligi va boshqalar .

Bizning tariximiz bu mezonlarning barchasiga to'liq javob berishini bugungi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar ham, taniqli mutaxassislar ham tan olgan.

Biz aynan ana shu haqiqatga tayangan holda o'z tariximizni buyuk va qadimiy deb bilamiz hamda u bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Yurtimizdan turli sabablar bilan chetga olib ketilgan milliy madaniyatimiz namunalarini qaytarib olib kelish masalasini o'rganish maqsadida **Oliy Majlis huzurida maxsus kamissiya tuzildi. Ushbu komissiya a'zolari to'plangan malumotlarga ko'ra, dunyoning eng yirik madaniy markazlari- London, Parij, Berlin, Moskva, Sankt-Peterburg,**



Nyu-York, Dehli, Tehron, Qohira va boshqa qator shaharlarda milliy merosimizning o'n minglab noyob namunalari mavjud.

Bu nodir ashyolar nufuzli muzey va kutbxonalarda shunchaki bezak uchun saqlanayotgani yo`q , albata. Ular asrlar davomida avvalo buyuk tarix va sivilizatsiya dalolati sifatida asrab-avaylab kelinmoqda.

Ko'hna zaminimizda bundan uch ming yillar ilgari dunyo taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi bo'lmish „Avesto“ shakllana boshlagani bizning yurtimizdagi sivilizatsiya qanchalik chuqur ildizga ega ekanini ko'rsatadi. 2001- yilda o'lkamizda „ Avesto“ning 2700 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlangani bizning tariximizga bo'lgan qiziqish va hurmat-ehtiromning yana bir isboti bo'ldi.

Yoki Buxoro, Xiva, Termiz kabi shaharlarimizning 2500 yillik to'ylari bayram qilingani, Shahrisabzning 2700 yilligi jahon miqyosida nishonlanishi – bularning barchasi bizning tariximiz haqida so'rganlarga munosib javob bo'ladi.

Amir Temur ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, kimki bizning qudratimizga, tariximizga shubha qilsa, ajdodlarimiz qurgan imoratlarga nazar solsin.

Tarix orqali mard va tanti, oqil donishmand, qahramon va fidoyi ajdodlarimiz bilan yuzma-yuz ko'rishib, suhbat qurmoq, dunyoning qanchadan-qancha sirlaridan barhamand bo'lmoq baxtiga ne yetsin! Bugun tariximiz qayta uyg'onib, bizning ismimizni aytib, o'z bag'riga chorlab turibdi. Ana shu da'vatga labbay deb javob bermoq farzandlik burchimizdir.

Aniqroq qilib aytsak, davlatchilik to'liq shakllanib bo'lmasidan avval ham uning ayrim belgilari, ba'zi funktsiya, ya'ni vazifalari amal qilgan. Masalan, odamlar yagona xalq, yagona davlat bo'lib birikmasidan ilgari ular o'rtasidagi munosabatlarni qabilachilik va urug'chilik qoidalari tartibga solib turgan.

Qabila a'zolari orasidan sardor- boshliq saylangan, unga hamma bo'ysungan. Qabilaning o'z tili, yashash joyi, urf-odatlar, turli jang-u jadallarda ishtirok etadigan jangovor yigitlari bo'lgan. Bularning barchasi yillar va asrlar o'tishi bilan asta-sekin davlatchilikka asos bo'lib borgan.

Turli qabilalar birlashib, muayyan xalqqa asos solgan. Ularning boshqaruv tizimi esa davlat idoralarini shakllantirishda muhim o'rin tutgan. Demak, davlatchilik shakllanishidan oldingi davrlarda ham yurtimiz hududida o'ziga xos hayot nishonalari mavjud bo'lgan. **Milliy davlatchiligimiz, boy ma'naviyatimiz namunalari ana shunday hayot negizida vujudga kelib, takomillashgan.**

Olimlar bergan ma'lumotlarga ko'ra, yurtimiz hududidagi ilk shahar miloddan oldingi ikki minginchi yillarning o'rtalarida paydo

bo'lgan ekan. Bu – miloddan 15-16 asr ilgari, bizning davrimizdan esa uch yarim ming yil muqaddan deganidir.

O'sha makon hozirgi Surxondaryo hududidagi Jarqo'ton shahri bo'lgan ekan. Ko'hna Samarqand zaminida olib borilayotgan tadqiqotlar esa bu yerda 3 yarim ming yil oldin ham shahar bo'lganidan dalolat bermoqda.

Bu qadimiy shaharlar bo'lajak davlatlarning o'ziga xos modeli, andozasi bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun ularni ilk shahar - davlatlar desak, xato bo'lmaydi. Ana shu dalillarga asosan, olimlar o'zbek davlatchilik tarixi uch ming yildan ziyodroq tarixga ega, degan xulosalarga kelmoqda.

Buyuk Turk xoqonligi vujudga keladi. U tarixda Turon deb ham ataladi. Bu davlat hozirgi kunda Yevraziya – Ovrusiyo deb ataladigan bepoyon yerlarni o'z ichiga olgan edi. Ya'ni, uning hududi sharqda hozirgi Mo'g'uliston chegarasidan boshlanib, g'arbda Azov va Qora dengiz bo'ylarigacha, janubda Fors ko'rfazigacha cho'zilgan edi. Bu davlat oltinchi asr oxirlarida ikkiga bo'linib ketadi. Turkiston degan atama esa Turonning hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasidagi hududlarini anglatgan.



Bu yerda turli davrlarda goh markazlashgan yagona davlat, goh har xil mayda davlatlar hukmronlik qilgan. Masalan, Sohibqiron Amir Temur butun Turkiston hududini yagona davlat sifatida birlashtirgan va buyuk davlatga asos solgan. Buyuk bobomiz o'zining oliy farmonlarini quyidagi so'zlar bilan boshlagani

ham bejis emas: „Bizkim, maliki Turon, amiri Turkistonmiz...”

Temuriylar davlatiga qadar ham yurtimiz hududida turli davlatlar bo'lgan. Ular asosan hukmron sulolalar nomi bilan atalgan: somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar kabi.

Davlatchilik haqida gap ketganda, bir narsani yodingda tutginki, uni qo'lga kiritgach, saqlab qolish, doimo mustahkamlash zarur.

Vatanimiz mustaqilligiga erishgach, xalqimizning azaliy xohish-irodasi, azm-u qarori bilan milliy davlatchiligimiz qayta tiklandi. Bu tarixiy jarayonda O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov buyuk xizmat ko'rsatdi. U sho'ro davrida xalqimizga nisbatan bo'lgan barcha zulm va zo'ravonliklarga qarshi mardona kurashib, yurtimiz istiqlolini amalga oshirishda bosh bo'ldi, mustaqil mamlakatimizning taraqqiyot yo'lini belgilab berdi, uning Konstitutsiyasini yaratishda,

qonuniy asoslarini mustahkamlashda, davlatimizning ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqarishda, Qurolli kuchlarimizni barpo etishda, toptalgan milliy qadriyatlarimizni tiklashda bevosita rahbarlik qildi.

Xalqimiz asrlar davomida benihoya boy ma'naviyat meros yaratgan. U bizning ko'pmingyillik tariximiz, tilimiz va dinimiz, yozma va og'zaki yodgorliklarimiz, qadimiy shahar va qal'alarimiz, san'at va adabiyotimiz, ilm- fanimiz timsolida zamonlar osha yashab kelmoqda.



O'ylaymizki, sen ularning har biriga o'zing ham misol keltira olasan, ular yordamida ma'naviyatimizning naqadar buyuk ekanini isbotlab bera olasan.

Milliy qadriyatlar millat va xalqning o'zi bilan birga asrlar, ming yilliklar mobaynida shakllanib, takomillashib boradi. Shuning uchun ularda orzu-intilishlar,

ruhiyati va tafakkuri, hayot falsafasi, turmush tarzi to'liq mujassam bo'ladi.

Masalan, Navro'z bayramini olaylik. Navro'z bayramini xalqimiz o'troq hayotni boshlagan qadim davrlardan buyon yashab kelmoqda. Chunki bu bayram avvalo yerga, suvga, quyoshga, tabiatga, butun mavjudotga mehr uyg'otadi, olam bilan yashashga da'vat etadi, dunyoning go'zalligidan barhamand bo'lishga chaqiradi.

Biz bugungi kunda ham bu bayramning sumalak qaynatish, uloq chopish, kurash tushish, yer haydash, urug' sochish, xonadonimiz, mahallamizni tozalash, tabiat bag'riga sayr qilish kabi marosimlarni ado etar ekanmiz, qalbimizda olis ajdodlarimizdan meros bo'lgan qadimiy tuyg'ular uyg'onadi: ona tabiatga yanada yaqinroq bo'lishga, uni sevib ardoqlashga, eng muhimi, ota-onalarimiz, yaqinlarimizga, shu tariqa barcha insonlarga mehr-oqibatli bo'lishga harakat qilamiz.

Vatanni, kindik qonimiz tomgan diyor mohiyatini, uning qadr-qimmatini teran anglash uchun biz birinchi galda yurtimizning boy va qadimiy tarixini, uning jo'g'rofiyasi, iqtisodi, siyosati, madaniyati, asrlar davomida shuyerda gullatib-yashnatibkelayotgan xalqimizning urf-odatlari, marosimlari, turmush tarzi va qadriyatlarini yaxshi bilishimiz zarur.

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?

Abdulla Oripov she'ri

**Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo,
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.**

**Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,
O'paman: „Tuprog'ing bebaho, Vatan...”
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashg'ar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!**

**Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni?
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,**

**Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrimga bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar,
Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog' unsin mangu muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo'lsa kechirma also!**

Vatan g'oyasi uchun da'vat qilguvchi, uning yo'lida jasur kurashchi bo'l. Shudagina baxt-saodat senga yor bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T., 2013.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma'naviyat”, 2008.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.
4. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.-«O'zbekiston»-1996.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.-«O'zbekiston»-1996.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T.- «O'zbekiston» -1996.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidin. 4-jild. T.-«O'zbekiston»-1996.
9. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild T.-«O'zbekiston»- 1997.
10. Karimov I.A.. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. T.-«O'zbekiston»-1998.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T.-«O'zbekiston»-1999
Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997.
“Yoshlar yili” davlat dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. // “Xalq so'zi” gazetasi, 1 mart 2008 yil.
12. "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. T., 1996.
13. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev A. Vatan tuyg'usi. T., 1996.
14. Komil ma'naviyat - mustaqillik tayanchi. T., 1997.
15. Sog'lom avlod orzusi. T., 1998.
16. Sodiqova T. Mehr qolur. T. 1997.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.ref.uz
3. www.kasu.uz
4. www.google.ru